


## Asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yil yanvar-sentabr

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 10841,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,9 % ni tashkil etdi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1652,0 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 % ni tashkil etdi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 119,9 % ni yoki 9189,0 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

*mlrd. so'm*




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 15,2 % i yoki 1652,0 mlrd. so'mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga 3729,1 mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 43,1 % foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 529,4 mlrd. so'm yoki o'tgan yilning joriy davriga nisbatan 99,4 %, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 103,9 mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149,4 % ni tashkil etdi.

### **Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi % da**

**2020 - yil****2021 - yil**

- Respublika byudjeti
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

## Markazlashmagan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da



- Korxonalar mablag'i
- Tijorat banklari kreditlari
- Boshqa qarz mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Xorijiy investitsiya va kreditlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 84,8 % i yoki 9189,0 mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 50,6 % ga to'g'ri kelib, 4649,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.

Korxonalar mablag'lari hisobidan 2709,8 mlrd so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Aholi mablag'lari hisobidan 1348,6 mlrd so'm yoki 14,7 % ni Tijorat banklari kreditlari hisobidan jami investitsiyalarning 5,1 % i yoki 472,3 mlrd so'm, investitsiyalar jalb qilindi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar**  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)


	mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	yakunga nisbatan, % da
<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>10841,0</b>	<b>67,9</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1652,0</b>	<b>20,4</b>	<b>15,2</b>
➤ Byudjet mablag‘lari	529,4	99,4	32,0
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	103,8	100,0	6,3
➤ Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	248,8	149,4	15,1
➤ O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	770,0	10,4	46,6
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>9189,0</b>	<b>119,9</b>	<b>84,8</b>
➤ Korxonalarining o‘z mablag‘lari	2709,8	130,0	29,5
➤ Aholi mablag‘lari	1348,6	99,5	14,7
➤ To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	4649,8	110,6	50,6
➤ Tijorat banklari kreditlari	472,3	103,9	5,1
➤ Boshqa qarz mablag‘lari	8,5	867,5	0,1

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 84,8 % ni yoki 9189,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. O‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxonalar va tashkilotlar mablag‘i 2709,8 mlrd.so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,0 % i o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida**  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)


	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd. so‘m	O‘sish sura‘ti, % da	mlrd. so‘m	jamiga nisbatan ulushi, % da
➤ Viloyat bo‘yicha:	10841,0	67,9	5419,8	50,0
<i>shaharlar:</i>				
➤ Qarshi	2423,3	133,2	879,3	16,2
➤ Shahrisabz	92,2	79,1	8,1	0,1
<i>tumanlar:</i>				
➤ G‘uzor	2947,9	99,8	1704,2	31,4
➤ Dehqonobod	180,6	117,7	51,9	1,0
➤ Qamashi	170,4	140,0	21,8	0,4
➤ Qarshi	514,0	49,4	260,8	4,8
➤ Koson	181,3	104,4	24,7	0,5
➤ Kitob	584,9	101,3	362,8	6,7
➤ Mirishkor	177,1	59,5	35,0	0,6
➤ Muborak	1966,5	111,3	1431,1	26,4
➤ Nishon	218,8	3,6	66,4	1,2
➤ Kasbi	189,1	60,0	40,2	0,7
➤ Chiroqchi	269,3	127,3	13,3	0,2
➤ Shahrisabz	673,7	297,8	504,2	9,3
➤ Yakkabog‘	251,9	137,2	15,9	0,3

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida Shahrisabz, Qamashi, Yakkabog' tumanlari Qarshi shahar va Dehqonobod tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 34,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Nishon tumanida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni – 3,6 %.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da )




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so‘m	<i>shu jumladan, ulushi % da</i>		
		qurilish-montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jixozlari	boshqa xarajatl ar
➤ <b>Viloyat bo‘yicha:</b>	10841,0	4758,5	5123,5	959,0
<i>shaharlar:</i>				
➤ <b>Qarshi</b>	2423,3	1448,6	915,3	59,4
➤ <b>Shahrisabz</b>	92,2	60,6	22,6	9,0
➤ <b>G‘uzor</b>	2947,9	870,6	1808,4	268,8
➤ <b>Dehqonobod</b>	180,6	99,7	8,3	72,6
➤ <b>Qamashi</b>	170,4	71,5	56,5	42,4
➤ <b>Qarshi</b>	514,0	310,5	162,0	41,4
➤ <b>Koson</b>	181,3	107,0	32,1	42,2
➤ <b>Kitob</b>	584,9	377,3	135,7	71,9
➤ <b>Mirishkor</b>	177,1	89,6	51,2	36,3
➤ <b>Muborak</b>	1966,5	600,8	1236,6	129,1
➤ <b>Nishon</b>	218,8	83,3	84,8	50,8
➤ <b>Kasbi</b>	189,1	88,2	66,3	34,6
➤ <b>Chiroqchi</b>	269,3	208,5	17,3	43,6
➤ <b>Shahrisabz</b>	673,7	190,7	454,0	29,0
➤ <b>Yakkabog‘</b>	251,9	151,6	72,4	27,9



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2021- yil yanvar-sentabr (jamiga nisbatan, % da)




Tog'kon sanoati tarmog'i bo'yicha 4061,1 mlrd.so'm o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 37,5 % ini tashkil qildi, ishlab chiqarish sanoati sohasida 2145,5 mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 945,2 mlrd.so‘mi boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalarning hajmi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 8,7 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 941,3 mlrd.so‘mni tashkil etib, jami investitsiyalarning 8,7 % ini o‘zlashtirildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida 5419,8 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 50,0 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 4649,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 50,6 %. Shuningdek, 3729,1 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 68,8 % ni tashkil qildi.

## Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan:	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ <b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>5419,8</b>	<b>1690,7</b>	<b>3729,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
➤ <b>Qarshi</b>	879,3	230,0	649,3
➤ <b>Shahrisabz</b>	8,1	3,7	4,4
<i>tumanlar:</i>			
➤ <b>G'uzor</b>	1704,2	57,4	1646,8
➤ <b>Dehqonobod</b>	51,9	47,6	4,3
➤ <b>Qamashi</b>	21,8	0,0	21,8
➤ <b>Qarshi</b>	260,8	198,0	62,8
➤ <b>Koson</b>	24,7	2,6	22,0
➤ <b>Kitob</b>	362,8	308,8	54,0
➤ <b>Mirishkor</b>	35,0	33,6	1,4
➤ <b>Muborak</b>	1431,1	720,0	711,2
➤ <b>Nishon</b>	66,4	48,6	17,8
➤ <b>Kasbi</b>	40,2	40,2	0,0
➤ <b>Chiroqchi</b>	13,3	0,0	13,3
➤ <b>Shahrisabz</b>	504,2	0,0	504,1
➤ <b>Yakkabog'</b>	15,9	0,0	15,9

**Uy-joylarni foydalanishga topshirish  
ming. kv. metr**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida jami umumiy maydoni 625,4 ming kv.metr (2020- yilning mos davriga nisbatan 99,2 %) bo'lgan 1278 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 423,1 ming kv.metr bo'lgan 791 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarni xududlar kesimida solishtiradigan bo'lsak, eng ko'p Qarshi shahrida 68,3 ming kv.metr va u viloyatda ishga tushirilgan umumiy maydonning 10,9 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Muborak tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: O. Bozorov**

**Aloqa telefoni: (75) 221-32-47**